

“CHUST TUMANI QISHLOQ VA SHAHARLARI TOPONIMI”

Rustamaliyev Jaxongir Faxriddin o'g'li

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali tarix
(mamlakatlar vamintaqalar aro) yo 'nalishi II bosqichtalabasi*

Annotatsiya: Chust bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, bu maskan o'zining madaniyati bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Ushbu maqola orqali Chust va unga tegishli bo'lgan qishloq va shaharlari tarixi va nomining kelib chiqishi haqida ma'lumot olasiz.

Kalit so'zlar: ferganatrop, buvanomozor, qurama, damba, mirishkor, affiks, eramizdan avvali,

Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi Selung'ur g'oridan ferganatrop odamining topilishi biz yashayotgan hududda million yillar ilgari odamlar istiqomat qilganligini tasdiqlaydi¹. Farg'ona vodiysidagi ana shunday qadimiy manzilgohlardan biri – Chust madaniyati nomi bilan tarixga kirgan – 3500 yillik tarixga ega bo'lgan sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan xalqning manzilgohidir². Ushbu hududda Buvanomozor manzilgohining topilishi va o'rganilishi Farg'ona vodiysida, shu jumladan, Namangan vohasida bundan 2800–3000 yillar avval ota-bobolarimiz tog'oldi joylarida, soylar sohilida va buloqlar atrofida yashaganlari va ilk bor sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi³.

Namangan viloyatida joylashgan qadimiy shaharlardan biri **Chust** hisoblanadi. Chust shahri toponomikasini kelib chiqishi to'g'risida turli ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, shahar Chust, Tuss nomlari bilan uchraydi. Chust toponomikasiga oid dastlabki ma'lumotlar sharqshunos olim A.Middendorf (Farg'ona vodiysi ocherklari. - Sankt-Peterburg, 1882.) asarida keltirilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, shahar yaqinida tuz qazib chiqarilgan bo'lib, shuning uchun shahar nomi “Tuss” deb atalgan. Shuningdek, mahalliy tilshunoslar fikricha, Chust so'zi forscha “tez”, “tezkor” manolarini bildiradi. Chust shahri tarixi 500 yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Uning oldindi nomi Toshqo'rg'on bo'lib, Karnon, Olmos, Baymoq, Toshloq nomli darvozalari bo'lgan. Rivoyat qilishlaricha, mashhur alloma Pop yaqinidagi Chodak qishlog'ida tug'ilgan Mavlona Lutfilloh (XVI asr) Chodakdan Axcha qishlog'i orqali Karnonga, ma'lum muddatdan so'ng Chust shahriga kelib istiqomat qiladi. Toshqo'rg'onda

¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010.– 16-bet.

² Najmiddin Fayziddin o'g'li Muhammad Hakim Jo'raxon Muhammad Xofiz o'g'li. Chust shahri, 1995 yil – 22-bet.

³ Qosimov Y. Qadimgi Farg'ona sirlari, Namangan, 1992 y. 33-bet.

(Chustda) bir qancha muddat yashaganidan so'ng toshqo'rg'onlik (chustlik) keksalar u kishini mehnatini qadrlamay ranjitgan emish. Mavlono Lutfilloh Chustdan chiqib Namangan tomonga ketayotganlarida toshqo'rg'onlik (chustlik)lar xazratni noo'rin xafa qilishganini bilib, u kishini qaytarib kelish uchun bir necha kishini yuboradilar. Mavlono Lutfillohga Rezaksoyga bormasdan, beriroqdagi aylanma dovon etagidagi Beltosh oldida uchratadilar va Chustga qaytishlarini iltimos qiladilar. Shunda Mavlono Lutfilloh "Chust amaded", ya'ni "tez keldingiz" degan ekanlar. Shu bilan shaharga Chust nomi berilgan mish. Shuningdek, boshqa bir ma'lumotga ko'ra, Toshqo'rg'on (Chust) aholisi asosan tojik millatiga mansub bo'lib, harakteri jixatdan tezkor, ildam va uddaburon bo'lgan. Ushbu xususiyatlariga qarab, Mavlono Lutfilloh Toshqo'rg'onliklarni Chuzdi (tezkor) deb atagan. Natijada, Toshqo'rg'on asta sekinlik bilan Chuzd, keyinchalik Chustga aylanib ketgan⁴.

Chust shaxriga qarashli qadimiy go'shalardan biri – Chust shahridan 10– 12 kilometr g'arbroqda, Qurama tog'oldi hududlarida, G'ovasoy etaklarida joylashgan **Olmos** qishlog'idir. Qadimdan Chust, Pop (Bob) va uning atrofidagi Varzik, G'ova, Qoraqo'rg'on, Olmos qishloqlarida aholi istiqomat qilgan, ular dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Olmos qishlog'inining janubi-g'arbida joylashgan tepalikda bog' yaratish maqsadida olib borilgan ekspedisiya jarayonida topilgan sopol ko'zalar nafisligi, o'ta silliq va naqshinkorligi, o'ziga xos shakli bilan kishilar diqqatini tortadi⁵. Bu kabi sopol buyumlar mamlakatimizning boshqa hududlaridan ham topilganligi mazkur ko'zachalarning yaratilgan davrini aniqlashga yordam beradi. Ya'ni, ushbu sopol ko'zalar mamlakatimiz hududiga Oltoy va Boyko'l atrofidan va boshqa hududlardan ko'chmanchi xalqlar kelib joylashgunga qadar yaratilgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, eramizgacha bo'lgan davrning so'nggi asrlari va eramizning I–IV asrlariga taalluqlidir. Shundan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, hozirgi Olmos qishlog'i hududida aynan ana shu davrlardan boshlab aholi istiqomat qilgan va xo'jalik yuritgan. Olmos qishlog'i tarixiga oid yana bir mulohaza yozuvchi Abdulla Jabborning "Namangan viloyati (ixcham ma'lumotlar)" kitobida keltiriladi. Unda ta'kidlanishicha, qishloq aholisi Olmossoyning ikki qirg'og'ida qadimdan yashab keladi. Kelib chiqishi arablar istilosi davri (VII–IX asr)ga borib taqaladi⁶. Darhaqiqat, Olmos qishlog'inining ayrim hududlarida hali-hanuz arab mahallalari va o'zini arablar urug'lariga mansub deb hisoblovchi aholi yashaydi. Olmos qishlog'inining nomlanishi haqida ham turlicha yondashuvlar mavjud. Odatda, aholi yashaydigan joylar va qishloqlarning nomlari o'sha joyning tabiiy geografik o'rni va tabiatini, bu joydag'i aholining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq nomlar bilan atalib kelingan. Tog'oldi hududi

⁴ Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. –T. Navro'z, 2017. –B.113

⁵ Talapov B. Olmoslik olimlar. –T. Tamaddun, 2020. –B. 6.

⁶ Abdulla Jabbor "Namangan viloyati (ixcham ma'lumotlar)", Namangan nashriyoti, 2011 – B.110.

va G'ovasoy etagida joylashgan Toshqo'rg'on, Baliqchi, Sarqamish, Ariqbo'yi, Olmos, Axcha, Suvbuzg'on (hozirgi Zvutqon) qishloqlari ana shu an'anaga ko'ra nomlangan. Jumladan, Olmos atamasining shakllanishiga doir quyidagicha qarash mavjud. Aytishlaricha, bu joyda istiqomat qiladigan dehqonlar har yili Olmossoyga damba solib, soyning suvini atrofdagi unumdor yerlarga burib, mo'l-ko'l hosil olishgan. Biroq, bahor oylari bir necha marta sel kelib dambani buzib ketaverган. Keyinchalik suv oqimiga qarshi mustahkam damba qurib, "endi bu dambani suvololmas", deya xotirjam bo'lishgan. Shu asnoda yillar o'tib, "ololmas" so'zidan Olmos so'zi shakllanib, butun bir qishloqning bugungi nomi shakllangan. Yana bir qarashga ko'ra, qadimgi qishloq hududida tog' va buloq suvlari yig'ilishidan vujudga kelgan kattagina ko'l bo'lgan. Ko'l suvi nihoyatda toza va shaffof bo'lganligi uchun olisdan xuddi olmosdek tovlanib ko'ringan. Shuning uchun joyni "Olmosko'l" deb atab, keyinchalik bu atama qishloq nomiga ko'chgan. Ba'zilar esa qishloq nomini tog' etaklarida joylashgan hududda yashagan aholining qat'iy xarakteriga ishora sifatida talqin qiladilar. Olmosliklar qadimdan chiroyli husni, xushro'yligi, kelishgan qaddi-qomati bilan ajralib turadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qishloqdagi ayrim mahallalar – "parilar makoni" deyiladi. Bunday "pari mahalla"laridan biri qishloqni kesib o'tgan Olmossoyning chap qirg'og'i bo'yida joylashgan Baliqlik machitning etagidagi mahalla hisoblanadi. Aytishlaricha, bu yerda istiqomat qiluvchilar Baliqlikdagi buloqlardan oqib chiqayotgan zilol suvdan ichganlari uchun ham ular go'zal va ko'rkan bo'lishgan. Mana shu shifobaxsh suvlar haqida iste'dodli olmoslik shoir Ermamat Nurmatov o'zining "Baliqlik" nomli she'rida shunday yozadi:

Suv oqadi mayin-mayin qo'shiqlar aytib,
 Talpinadi mehri otash bog' visoliga,
 Bir hovuch suv ichgan yana keladi qaytib,
 Qonay, deydi ohanrabo Olmos boliga!⁷

Keyingi yondashuvga ko'ra, bu hududga Tojikistonning Hisor viloyatida joylashgan Olmos degan joydan hisorlik o'zbeklar ko'chib kelib o'rnashishgan va dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Keyinchalik ular yashagan hududlar, butun bir qishloq shunday atalgan. Olmos toponimi xususida yuqoridagi kabi bir necha xil fikr-mulohazalarning bo'lishi tabiiy. Chunki bu toponimning kelib chiqishi, mazmuni haqida hozirga qadar biror-bir tarixiy manbada aniq ma'lumotlar uchramaydi. Yuqoridagi taxmin va qarashlar ichidan qishloq nomiga jo'g'rofiy jihatdan yondashuv, ya'ni "ololmas" so'zidan Olmos so'zi kelib chiqqan – degan yondashuv asosliroq ko'rinadi. Olmos qishlog'ida qadimdan o'zbeklar, qishloqning tepe qismi – Ariq bo'yi hududida esa avvallari asosan chorvachilik bilan shug'ullangan qipchoq elati va qirg'iz millatiga

⁷ Nurmatov E. Ikki qutb. Saylanma. – T. Sharq, 2010. – B.43.

mansub aholi istiqomat qilishadi⁸. Qishloqda deyarli boshqa millat vakillari uchramaydi. O‘zga millat vakillari qishloqqa oila – nikoh munosabatlari va mavsumiy ishlar sababli kelib yashashgan. Hozirgi kunda ham qishloq aholisining milliy tarkibi o‘zgarmagan. Bugungi kunda Olmos qishlog‘ida 35 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloqdagi Bozorboshi, Qorakapa, Munchoqtepa, Toyomas (ushbu nom 92 o‘zbek urug‘laridan birining nomi bo‘lib, ayrim manbalarda ushbu nom tolmas, deb keltiriladi), Birlik kabi mahallalarida azaldan aholi yashab kelgan. Mazkur mahallalarda aholi qish faslida yashab, yoz oylarida dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanish uchun o‘zlari yaratgan bog‘lari – rovotlarga ko‘chib ketishgan. Mirishkor dehqon hisoblangan Olmos qishlog‘i aholisining ko‘pchilik qismi hozirda ham mavsumiy dehqonchilik qilish uchun respublikamizning boshqa viloyatlariga ko‘chib ketishadi va kuzgi ekinlar yig‘ib-terib olingandan so‘ng qishloqqa qaytishadi.

Varzik. Ma’lumotlarga ko‘ra, Varzik - fors-tojikcha “ekinzor” degan ma’noni bildiradi. Shuningdek, Varzik toponimi so‘g’dcha ikki so ‘z “var” - g’ov, qo‘ra va “z, ze” so‘zlaridan tashkil topgan, ya’ni atrofi qo‘rg'onli, g’ov bilan o’ralgan joy, yoki qo‘rg'oncha “soy boyidagi qo‘rg'on” ma’nolarini ham berishi mumkin. Chust tumanidagi yana bir qishloq **Varzigon** toponimiga ham shunday ta’rif beriladi.

Karkidon. Qishloqning tashkil topish tarixi XV-XVI asrlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha. “kar” toponimi hind-yevropa til oilasiga mansub bo‘lib, “shahar”, “uya” degan, “ki” esa “ko‘k”, “tog”, “tepa” degan ma’noni anglatadi. Demak, “karki” so‘zi tepadagi, tog‘dagi qishloq ma’nosini bildiradi. Shuningdek, qishloq toponimi haqida boshqa ma’lumotlar ham mavjud. Xususan, V. Nalivkin qadimda o‘zbeklarning ming. yuz, qirq, kerki, qipchoq va boshqa urug‘larining Farg‘ona vodiysiga o‘rnashganligi haqida ma’lumot beradi. Shundan kelib chiqib, Karkidon qishlog‘ining nomi va aholisi kerki urug‘idan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Atamaning “don” qo‘sishchasi - “joy”, “makon” ma’nosini anglatadi.

G’ova. Qishloq juda qadimiy bo‘lib, eramizning I-IV asrlariga oid topilmalar topilgan. G’ova atamasining asosiy o‘zagi “g’ov” - fors tilida “qishloq”, “ovul” degan ma’noni bildiradi.

Axcha. ma’lumotlarga qaraganda, XVII asrda poydo bo‘lgan. Axcha nomi esa, shu nom bilan ataluvchi o‘zbek urug‘laridan birining nomidan olingan.

Baymoq. Qishloq XVI asr oxiri XVII asr boshlarida tashkil topgan. Atamashunoslar Baymoq atamasi - “Ikki tog‘ning yaqinlashgan joyi” ma’nosini bildiradi, degan fikrdalar.

Sho‘rqa‘rg‘on. Aytishlaricha, Sho‘raqo‘rg‘on XVII - XVIII asrlar atrofida paydo bo‘lgan. Bu joy oldinlari qamishzor, sho‘rxok, sho‘ra bosib yotgan yer deb nomlangan. Ko‘chmanchi qirg‘iz va qipchoqlar, qo‘shni qishloqlar aholisi bu yerni

⁸ Abdulla Jabbor “Namangan viloyati (ixcham ma’lumotlar)”, Namangan nashriyoti, 2011. –B.67.

o'zlashtirib, sho'ra o 'simligidan yasalgan kapa, chaylalarda yashab, dehqonchilik qilgan. Sho'rqa'rg'on toponimi shundan kelib chiqqan.

Shoyon. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq XVIII asr boshlarida vujudga kelgan. Mahalliy aholining aytishicha, qadimda bu yerda o'zbeklarning sholar urug'i kelib o 'rnashgan va Ko'ksaraksoy (Rezaksoy)dan Sholar arig'i qazilib, suv olib kelingan. Qishloq shu tariqa vujudga kelib, Sholar yoki Shoyon nomini olgan.

Qiziltepa. Qishloqning shakllanish jarayoni XVII asr boshlariga to'g'ri keladi. Mahalliy aholining aytishicha, qishloq aholisi bir vaqtlar Buxoro amirligiga qarashli bo'lган Qiziltepadan ko'chib kelgan, Qishloq nomi ham shu tariqa Qiziltepa nomini olgan ekan.

Zuvutqand. Shuningdek, bu qishloq Subuzgan ham deb ataladi. Qishloq qadimiy bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda. XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida paydo bo'lган. Toponimidagi "zov", "zuv", "zob" forscha "tik qoya", "jarlik", "chuqur dara" kabi m a'nolarni bildiradi. Haqiqatan ham, Zuvutqand qishlog'I geografik jihatdan ariqlar, selxona va suv to'planadigan tor darada joylashgan. Demak, Zuvutqand qadimda Zobirkon deb yuritilib, keyinchalik, xalq tilida soddalashib, Zuvutqand yoki Subuzgan deb nomlangan.

Ariqbo'yi. XX asr boshlarida paydo bo'lган. Ariqboyi toponimi ikki o'zakdan - "ariq" va "bo'yi"dan yasalgan bo'lib, aholi dastlab kelib o'rnashgan yangi qazilgan ariq nomidan kelib chiqqan.

Dam. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloq nomi Sumsaroy soyining irmog'i Rezaksoydan qazilgan Damariq nomidan olingan.

Hisorak. Hisor arabcha so'z bo'lib, "qo'rg'on", "qal'a", "istehkom" degan ma'nolarni bildiradi. - ak esa toponim yasovchi affiks.

Chindovul. Chindovul toponimi haqida ikki xil ma'lumot mavjud. 1).Suv tashuvchi meshkob; 2) Chingdovul - qo'shining orqasida yuradigan soqchi otryad.

Yorqishloq. Qishloq toponimi "yor" va "qishloq" so'zlarini qo'shilishidan kelib chiqqan. "Yorqishloq" – jarlik yoqasida, ariq yaqinida joylashgan qishloq degan ma'nolarni bildiradi.

Kaklikqo'rg'on. Ma'lumotlarga qaraganda, qishloqqa XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida asos solingan. Toponimi ikki so'z "kaklik" va "qo'rg'on" so'zlarini birikishidan xosil bo'lган. Kaklikqo'rg'on qishlog'i toqqa yaqin bo'lib, oldinlari kaklikka boy bo'lgani uchun "Kaklikkon" deb ham yuritilgan

Duoba. Qishloq aholisi, asosan, tojiklar bo'lib, ma'lumotlarga qaraganda bundan 4-5 asr muqaddam Qorategindan ko'chib kelgan. Duoba toponimi tojikcha "du" - "ikki" va "ob" - "suv" so'zlarini birikmasidan iborat bo'lib, qishloqning Hulvazorsoy va Duobasoy oralig'ida joylashganligi bilan bog'liq.

Kamon. Zahiriddin Muhammad Bobuming "Bobumoma" asarida ham Kamon qishlog'i Boburmirzo dushmanlaridan yashirinib, jon saqlagan joy sifatida tilga olinadi.

Kamon toponimining birinchi o'zagi "kar" bo'lib, "shahar", "uya", "atrofi o'ralgan joy" ma'nolarini anglatadi. Bundan ko'rinish turibdiki, Kamon qishlog'i qadimiy va qadimda atrofi o'ralgan kattagina qishloq bo'lgan.

Og'asaroy. Ma'lumotlarga ko'ra, qishloq XVI asr boshlarida vujudga kelgan. Og'asaroy toponimi haqida tarixchi Y. Qosimov Namangan yaqinida uyg'urlarning "og'a" urug'i yashaganligini bayon etgan. XIX asr ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysi o'rgangan sharqshunos V. Nalivkinning yozishicha, Namangan atroflarida og'acha urug'i va og'aliklar yashaganligi haqida ma'lumot beradi. Ko'rinish turibdiki, qishloq nomi og'a urug'i nomi bilan bog'liq.

Qayirma. Qishloq toponimi haqida turli xil ma'lumot mavjud. Ushbu geografik atama qayrilmoq (burilmoq) fe'lidan kelib chiqqan. Qayirma deganda yo'lning burilishi, tuyilishi tushiniladi va qishloqning geografik o'rniga qaratilib shunday atalgan.

Rezaksoy. Qishloq XVIII asr boshlarida paydo bo'lgan. Rezaksoy - kesishgan joy yoki adirlarni teng ikkiga ajratib oquvchi soy demakdir.

Sariqamish. Sariqamish toponimi ikki o'zakdan, "sar" tojikcha "bosh" hamda "qamish" - qamish so'zlarining birikuvidan kelib chiqqan. Sariqamish qishlog'i o'rni qadimda qamishzorlardan iborat bo'lgan bo'lib, nomi shu bilan bog'liq.

Tepaqo'rg'on. Qishloqning vujudga kelishi XVI asr oxiri - XVII asrning boshlariga to'g'ri keladi. Qishloq toponimi yuqorida ta'kidlanganidek, ikki o'zakdan - "tepa" va "qo'rg'on" so'zlaridan yasalgan bo'lib, "tepadagi qo'rg'on", "tepadagi qal'a" ma'nolarini anglatadi⁹.

Foydalilanilgan Adabiyotlar:

1. Abdulla Jabbor "Namangan viloyati (ixcham ma'lumotlar)", Namangan nashriyoti, 2011 – B.110 / 67
2. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. –T. Navro'z, 2017. –B.113 / 116
3. Najmiddin Fayziddin o'g'li Muhammad Hakim Jo'raxon Muhammad Xofiz o'g'li. Chust tarixi. Chust shahri, 1995 yil – 22-bet.
4. Nurmatov E. Ikki qutb. Saylanma. – T. Sharq, 2010. – B.43.
5. Qosimov Y. Qadimgi Farg'ona sirlari, Namangan, 1992 y. 33-bet.
6. Talapov B. Olmoslik olimlar. –T. Tamaddun, 2020. –B 6.
7. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Birinchi kitob, T., Sharq, 2010. – 16-bet.

⁹ Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. –T. Navro'z, 2017. –B.116